

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR

*Mirzahamdama Nozima**Andijon davlat pedagogika instituti talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm sindromiga chalingan bolalar, autizm belgilari, autizm sindromiga chalingan bolalar rivojlanish xususiyatlari, autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari hamda uning amaliy jihatlari keltiriladi.

Kalit soʻzlar: Autizm, kognitiv, shizofreniya, emotsional qiyinchilik, autistic.

Autizm (grek tilida autos – oʻzi) – bu atama 40 yil oldin kirib kelgan, munozarali, lekin baʼzilarning bahslashib kelishicha, shaxsga (odatda bolaga) “autistiklik” deb tashxis qoʻyish mumkin. Bu hastalikning asosiy belgilari – bolaning muloqot qilishdagi qiyinchiligi, boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan oʻzini tortib, goʻyo oʻzining olamida yashayotgandek tuyuladi.

Autizm miya faoliyatining buzilishi boʻlib, atrofdagilar bilan boʻladigan muloqot chogʻida ularda turli muammolar kelib chiqadi. Ushbu kasallikka erta tashxis qoʻyilishi bemorlarga jamoa orasida oʻz oʻrnini topishga yordam beradi. Millat, elat, madaniyat, din va ijtimoiy tabaqa tanlamaydigan bu sindrom ayollarga nisbatan erkaklarda koʻproq uchraydi. Shunday fikrlar ham ilgari surilganki, bolalarga qilinadigan vaksinalar autizmga sabab boʻlishi mumkin. Biroq bu fikr haqiqatdan ancha yiroq boʻlganligi bois oʻz tasdigʻini topmagan.

Autizm asab sistemasining kasalliklaridan biridir. Ushbu nuqson bolalarda turlicha namoyon boʻladi. Ayrim olimlar fikricha, autizm ruhiy kasalliklarning belgilaridan biri boʻlib, bunda bola tevarak – atrofga nisbatan befarq, beparvo boʻladi. Natijada atrofdagilar bilan aloqada boʻlmaydi muloqot qilmaydi. Bola oʻz –oʻzi bilan boʻlib, oʻzich hayajonlanib kuyinib, nimalardandir tashvishlanib oʻz ichki dunyosida yashaydi. Baʼzi bolalarda emotsional qiyinchiliklar mavjud boʻladi.

Autizm bolada har xil darajada namoyon boʻlishi mumkin. Maktabga yangi kelgan bolalarda autizmga oʻxshash belgilar paydo boʻlishi mumkin, chunki bola yangi muhit, yangi sharoitga yangi odamlarga hali oʻrganmagan boʻladi. Ogʻir darajadagi autizmda aqli zaiflik belgilari kuzatilishi mumkin. Autizmning yengil holatida esa tarbiyachi bolaning kun tartibini toʻgʻri tashkil etishi kerak. Bolaning faoliyatini uygʻunlashtirish guruhdagi bolalar bilan munosabatini yaxshilash psixoterapeftik tushuntirish ishlarini izchillik bilan olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi ota – onalar bilan tez – tez tushuntirish ishlarini oʻtkazishi

zarur. Bolaga haddan tashqari ko'p etibor bermaslik lozim. Bola oilada o'zini hamma qatori his etishi kerak. Bolaga qo'lidan keladigan ishlarni buyurish va bajargan ishini maqtab qo'yish, bolani qo'llab – quvvatlash. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hodimlari bola uchun qulay sharoit yaratib berib, unga yaxshi muomilada bo'lgan holda uning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishga yordam berishlari lozim. Autizmning og'ir holatlarida bola shifokor nazoratida dori – darmonlar bilan davolanishi maqsadga muvofiqdir.

Autizmlil buzilishlarning ifodalanish darajasi turli xil toifadagi bolalarda o'zgaruvchandir. O.N.Nikolskaya va boshqalarning (1997) klassifikatsiyaga binoan , autizmlil bolalarni 4 toifaga ajratib o'rganishgan.

Hozirgi kunda yordamga muhtoj bolalar va yosh o'smirlarning ta'limiy uslubiy yordam olishlari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida davlatimiz tomonidan turli shart –sharoitlar , chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Autizm kasalligi yoshga qarab quyidagilarga bo'linadi:

Erta bolalik autizmi – 2 yoshgacha;

Bolalik autizmi – 2-11 yoshgacha;

O'smirlik autizmi – 11- 18 yoshlargacha.

O'smirlik autizmida belgilarga autistning gormonal o'zgarishlari ham qo'shiladi. Diagnostika faqatgina belgilarga asoslanib, psixiatr shifokor qo'yadi. Ko'pchilik autist bolalar adabiyotlarda keltirilgan autizm belgilariga mos kelmasligi mumkin. Ba'zi hollarda autist bolalar insonlar bilan muloqotga ham kirishishlari mumkin, bu esa diagnostika qo'yishda qiyinchiliklar tug'diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Autizm:Innovatsion yondashuvlar va harakat strategiyasi II Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya to'plami.
2. Nurmatova D.G „Autist bolalarni ijtimoiy-psixologik moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”. -2020.